

## **QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORT SALOHIYATINI OSHIRISH**

*Umirbekova Dilfuza*

*Qoraqalpog'iston qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar institute  
Zooindjeneriya fakulteti "Marketing" ta'lif yo'naliishi 3-kurs studenti*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini taminlash hamda ularni eksport miqdorini oshirish bilan bog'liq faoliyat yoritilgan. Meva-sabzavot mahsulotlarining eksportining dinamikasi va tarkibi tahlil qilingan.

**Kalit so'zlar:** qishloq xo'jaligi mahsulotlari, jahon bozori, sifat, eksport

Yurtimizda so'nggi yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sifati va xavfsizligini ta'minlash, eksport salohiyatini oshirish yo'nalishida bajarilayotgan keng ko'lamli ishlar, uzoq yillar davomida qishloq xo'jaligi sohasini tubdan isloh qilish, unga ilg'or va zamonaviy texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan chora-tadbirlar qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat sanoatini butunlay yangi bosqichga olib chiqdi, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Bugungi kunda eksport qilingan meva-sabzavotlarimiz dunyoning turli burchaklarigacha yetib boryapti.

Oxirgi yillarda mahsulotlarni MDH mamlakatlaridan tashqari yirik tashqi bozorlar: — Xitoy, Germaniya, Turkiya, Janubiy Koreya, Yaponiya, Hindiston, Boltiqbo'yini davlatlariga eksport qilish yo'lga qo'yildi.

Mamlakatimizda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish va qayta ishlashda mahsulot sifatining yaxshilanishi, qadoqlash jarayonlarida zamonaviy texnologiyalarning qo'llanilishi hisobiga dunyoda o'zbek mahsulotlari, ayniqsa, gilos, anor, qovun, quritilgan mevalar, yong'oq va uzumga bo'lgan talab ortib

bormoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport salohiyatini oshirish haqida gap borganida, e'tibor qaratilishi zarur bo'lgan yana bir muhim jihat mahsulotning jahon standartlari talabiga javob berishi hisoblanadi.

Oxirgi yillarda bu yo'nalishda ham sezilarli o'zgarishlar ko'zga tashlanmoqda. Ko'plab dehqonlar, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini eksporti bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlarga GLOBAL G.A.P, Organic, HACCP kabi xalqaro sertifikatlarning berilishi noan'anaviy bozorlar, jumladan, Yevropa davlatlariga yo'l ochmoqda.

Xalqaro sertifikatlarni qo'lga kiritish ko'pchilik o'ylaganidek tez va oson kechadigan jarayon emas, balki buning uchun yillab vaqt kerak bo'ladi.

Mamlakat eksport salohiyatining yuksalishida qishloq xo'jaligi muhim ahamiyatga ega.

O'zbekiston joriy yilda xorijiy davlatlarga davlat statistika qo'mitasi dastlabki ma'lumotlariga ko'ra, 2022-yilning yanvar-noyabr oylarida xorijga qiymati 1,0 mlrd. AQSH dollari qiymatidagi 1,6 mln. tonna meva va sabzavotlar eksport qilgan.

Bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davri bilan solishtirilganda 168,3 ming tonnaga oshgan.

So'nggi 4-5 yilda tashqi bozorga yo'naltirilayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hajmi bir necha baravarga oshdi.

Mamlakatimiz dunyoning 22 davlatiga 180 turdan ortiq sarxil meva-sabzavot va ularni qayta ishlash asosida tayyorlangan mahsulotlarni eksport qilayabdi.

O'zbekiston o'rik, olxo'ri, uzum, yong'oq, karam va boshqa ko'plab meva va sabzavot mahsulotlarini eksport qilish hajmi bo'yicha dunyodagi o'nta yetakchi davlat qatorida turadi.

Mavjud ilmiy tadqiqotlar, adabiyotlar tahlili va qishloq xo'jaligi mahsulotlarni eksport salohiyatini oshirishda vujudga kelayotgan muammo va ularning yechimlari tahlillarining natijasiga ko'ra, eksport salohiyatini oshirishda savdodagi texnik to'siqlarni bartaraf etishda xalqaro standartlarni qo'llash, sinov laboratoriyalarni ilmiy metodik tashkil qilish, rivojlantirish bevosita qishloq xo'jaligida ishlab

chiqarish samaradorligidan tortib xalqaro bozorlarda eksport hajmini oshirishga ta'sir ko'rsatadi.

**1-jadval**

**Respublika meva-sabzavot mahsulotlari eksportining dinamikasi va tarkibi**

	Eksport qilingan meva va sabzovotlar hajmi (ming tonna)
	2022-yil 11 oyi
Eksport hajmi	2054.2
meva va rezavorlar	335
quritilgan meva va rezavorlar	42
sabzovotlar	819
piyoz	199.5
karam	142
pomidor	71
uzum	218
mayiz	73.6
yeryong'oq	18.3
tarvuz-qovun	135.8

Shu bilan birga, jahon bozorida mahsulotlarga qo'yilgan sifat va xavfsizlik ko'rsatkichlari, organik qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lган talablarning tobora kuchayib borishi, respublikamizda yetishtirilayotgan mahsulotlarning xalqaro bozorlardagi o'rnini mustahkamlash qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sertifikatlashtirish jarayoni uchun qo'shimcha chora-tadbirlar ko'rishni talab

qilmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozoriga muvaffaqiyatli chiqarishda marketingning ahamiyati va roli juda muhimdir. Jahon bozori tizimi va kommunikatsiya imkoniyatlari, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining tabiiy, ekologik va organik xususiyatlari, reklama, savdo strategiyalari, brandingning ahamiyati, sifatli reklama va reklama strategiyalari, branding va logo yaratishning ahamiyati, targ'ibot vositalari va onlayn platformalar yordamida mahsulotlarni dunyo bo'ylab yetkazib berish marketingning asosiy bo'limlariga misol qilinadi. Bu asosiy bo'limlar qishloq xo'jaligi sohasini rivojlantirish, mahsulotlarni sotishning ustuvorligini ta'minlash va global o'zaro hamkorlikni oshirishga yordam beradi. Bizning tadqiqotlarimiz va innovatsion yondashuvimiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini jahon bozorlarida kengaytirishga yordam beradi. Bunda, yuqori sifatli mahsulotlar ishlab chiqarishda katta muhim ahamiyatga ega bo'lgan texnologiyalar va ilg'or resurslardan foydalanishimiz zarur. Shuningdek, xaridorga ko'rib chiqish muassasalarini o'rnatish, hisob-kitoblarni boshqarish, logistika va marketing sohasidagi amaliyotlarda ham muvaffaqiyatli bo'lish uchun tizimli va sifatli ishlab chiqarish jarayonlarini o'rnatish kerak.

## **REFERENCES**

1. <https://assalomagro.uz/uz/news/qishloq-xojalik-mahsulotlarini-eksport-qilish-hajmi-boyicha-ozbekiston-dunyodagi-onta-yetakchi-davlat>.
2. <https://agroexpouzbekistan.com/en/> AgroExpo Uzbekistan ma'lumotlari.
3. <https://stat.uz>.
4. 5. B.Sermukhamov, I.Salokhiddinov, Methods for modernization of agriculture at
5. economical reforms. Journal of International Finance and Accounting, Volume 2018.